IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

XALQ TABOBATI MUTAXASSISLARI FAOLIYATINI MONITORING QILISHNING ELEKTRON PLATFORMASINI ISHLAB CHIQISH

Kamolov Baxtiyor Jasur o'gli

TATU magistranti

Annotatsiya: Xalq tabobati mutaxassislari faoliyatini monitoring va sog'liqni saqlash tizimiga integratsiya qilish uchun elektron platforma ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati, monitoring tizimi, sog'liqni saqlash, integratsiyalash, elektron platforma.

Аннотация: Разработка электронной платформы мониторинга деятельности специалистов народной медицины и ее интеграция в систему здравоохранения.

Ключевые слова: народная медицина, система мониторинга, здравоохранение, интеграция, электронная платформа.

Annotation: Development of an electronic platform for monitoring the activities of folk medicine specialists and integrating them into the health care system.

Key words: folk medicine, monitoring system, health care, integration, electronic platform.

Xalq tabobati (maxalliy yoki an'anaviy tabobat ham deb nomlanadi) zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi davriga qadar turli xil jamiyatlarning e'tiqodlari doirasida avlodlar osha foydalanib kelgan an'anaviy bilim va ko'nikmalarning tibbiy jihatlarini o'z ichiga oladi va uning tarixi 5000 yil bazdan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan (JSS) xalq tabobatiga – "insonlarning jismoniy va ruhiy kasalliklarini oldini olish, tashxis qo'yish va davolashga qaratilgan turli madaniyatlarning nazariyalari, e'tiqodlari va tajribalariga asoslangan bilim, ko'nikma va amaliyotlar majmuasi" deb ta'rif bergan.

Uzoq yillardan buyon va hozirgi kunda ko'plab xalqlar orasida hozirgi zamonaviy tibbiyot ko'lamidan tashqari kasallik, dard va ruxiy xastaliklarni aniqlash va davolash jarayonlari uchun xalq tabobatidan keng foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy tibbiyot mutaxassislarini ojiz qoladigan ba'zi tur kasallik, dard va ruxiy xastaliklarni tabobat orqali davolash xalq orasida ma'lum va mashhur. Hozirgi kunda ham Osiyo va Afrika mamlakatlarining taxminan 80% aholisi tibbiy yordam ehtiyojlarini qondirish uchun xalq tabobatiga tayanadi. Shuning uchun ham ushbu tur amaliyotlari har doim xalq orasida muqobil tibbiyot sifatida shakllanib kelmoqda.

Oxirgi 100 yilliklarda ko'plab mamlakatlarda xalq tabobati nomi ostida bajarilayotgan tibbiy amaliyotlar davlat tomonidan ruxsat etilgan va tan olingan hamda ilmiy asoslangan va zamonaviy tibbiyot bilan o'zaro integratsiyalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham Xalq tabobati sohasini tartibga solish, rivojlantirish va aholi orasida keng joriy etish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2020 yil 10 apreldagi PQ-4668-son «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlarda xalq tabobatini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha quyidagi masalalar yechish belgilangan;

- xalq tabobati xizmatlarini ko'rsatish jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, tabiblarning huquq va majburiyatlarini aniqlash;

- xalq tabobati usullari bilan davolovchi shaxslar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati va xavfsizligi ustidan davlat nazoratini o'rnatish;

- dorivor o'simliklar va tabiiy vositalarning rivojlangan bozorini shakllantirishga ko'maklashish, ularni umumiy manfaatlarini himoya qilish;

- o'tkir va murakkab bo'lgan kasalliklarni oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda xalq tabobatining zamonaviy tibbiyot tizimi bilan integratsiyasini amalga oshirish;

- xalq tabobati vakillari, ularning tajriba va ish natijalari, ular ko'rsatadigan xizmat turlari haqida va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi yagona xalq tabobati platformasini ishlab chiqish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xalq tabobati mutaxassislari faoliyatini monitoring qilish va sog'liqni saqlash tizimiga integratsiyalash maqsadida elektron platforma ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi va hozirgi pandemiya sharoitida yechilishi muhim bo'lgan dolzarb masalalardan biridir.

Kutilayotgan natijalar va ularning ahamiyati (kutilgan natijalar va ularning ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egaligi (rejalashtirilgan natijalarning jahon miqyosidagi tadqiqot natijalariga muvofiqligi, loyihada rejalashtirilgan natijalarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari) O'zbekiston Respublikasi hududida xalq tabobati bilan shug'illanuvchi tabiblarning faoliyatlarini kengaytirish, xalq orasiga yoyish va foydalanuvchilar bilan interfaol munosablarini ta'minlash maqsadida elektron platforma ishlab chiqiladi. Ushbu platforma orqali har bir tibbiy xizmat ko'rsatish sohasidagi tabiblarning faoliyatlari, kasallikni aniqlash, tashxis qo'yish va davolash usullarini taqdim etuvchi ochiq ma'lumotlar bazasini ishlab chiqiladi. Tabiblarning faoliyatlarini tan oluvchi va tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslarni yaratiladi hamda ularning huquq va majburiyatlari aniq chegara orqali belgilanadib qo'yish.

Taklif etilayotgan elektron platforma orqali tabiblar tomonidan tayyorlanayotgan dorivor o'simliklar va tabiiy vositalar bozorini rivojlantirish va ko'maklashish hamda bu yo'lda ularni umumiy manfaatlarini himoya qilish mexanizmini ishlab chiqiladi. Xalq tabobati usullari bilan davolovchi shaxslar tomonidan ko'rsatilayotgan har bir faoliyatning sifatini va xavfsizligini monitoring qiluvchi davlat nazorati o'rnatiladi. Har yilda bir marotaba tabiblarning faoliyatini tahlil qilish natijasida keyingi faoliyatlarni davom ettirishni tasdiqlovchi sertifikat berish tizimi joriy etiladi.

O'tkir va davolash jarayoni murrakab bo'lgan kasalliklarning oldini olish, tashxis qo'yish va davolashda xalq tabobatini zamonaviy tibbiyot tizimi bilan integratsiyalash va tajriba almashish imkoniyatini taqdim etishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqiladi. Elektron platforma bazasida xalq tabobati vakillarininng ko'rsatayotgan faoliyatlari va xizmat turlari, zamonaviy tibbiyot mutaxassislari bilan hamkorlikda erishgan yutuqlari va boshqa qo'shimcha ma'lumotlarini o'z ichiga oluvchi yagona xalq tabobati ma'lumotlari bazasi ishlab chiqiladi. Ishlab chiqilgan ma'lumotlar bazasida qaror qabul qilishga ko'maklashuvchi sun'iy intellekt algoritmlari joriy etiladi va xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish imkoni yaratiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan xizmatlarni joriy etish bilan xalq orasida tabobat bilimlari va ko'nikmalarini keng

targ'ib etish, xalq va tabib munosabatlarii faollashtiriladi. Pandemiya sharoitlarida va insonlarni olib borish imkoniyati cheklangan holatlarda kerakli soha tabiblari bilan bog'lanish, masofadan kasallikni aniqlash va davolash hamda bir vaqtning o'zida zamonaviy tibbiyot mutaxassislari bilan onlayn uchrashuvlar tashkil etib ko'rilayotgan mumammoni hamkorlikda hal etish mumkin bo'ladi. Shuningdek, ushbu elektron platforma orqali ruxsatsiz va isbotlanmagan tabobat faoliyatlari bilan shug'illanuvchilarning faoliyatlari cheklanishi mumkin.

Xalq tabobati mutaxassislari faoliyatini monitoring va sog'liqni saqlash tizimiga integratsiya qilish uchun elektron platforma ishlab chiqish doirasida amalga oshiriladigan amaliy-tajribaviy izlanishlarni O'zbekistonda tabobat sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy tibbiyot va uzoq yillardan buyon sinalib kelinayotgan an'anaviy tibbiyotni integratsiya qilish bilan aholi o'rtasida tabobatni qo'llash va sifatli xalq tabobati xizmatlarni joriy etish imkoniyatlarini yaratish. Ushbu loyihani amalga oshirish davomida olib borilgan ilmiy-izlanishlar asosida "Fan tarmog'i" (Web of Science Core Colection) va "Skopus" (Scopus) ma'lumotlar bazasida indekslangan xorijiy nashrlarda 6 ta maqola va tezislar nashr qilinadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki zamonaviy axborot texnologiyalari hamma sohaga kirib bormoqda va tibbiyotni ham chetlab o'tmadi.Zamonaviy axborot texnologiyalari tibbiyot xodimlari uchun juda ham keng imkoniyatlar yaratib bermoqda va kasalliklarni oldini olishga,bemorlarni tez va samarali davolashga juda katta yordam berib kelyapti. Bu borada teletibbiyot , elektron kasallik tibbiy kartalar, mobil ilovalar,har xil tibbiy platformalar orqali tibbiyot xodimlari va shu jumladan xalq tabobati xodimlarini ham vazifalarini yengillatilmoqda.Bu borada O'zbekistonda ham juda keng ishlar olib borilmoqda va prezident qaror va farmonlari chiqarilmoqda va sohada juda ham katta o'zgarishlar bo'lganini maqolada ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tibbiyotda axborot texnologiyalari.Darslik T.2017
2. Valcke, M., & De Wever, B. (2006). Information and communication technologies in higher education: evidence-based practices in medical education. *Medical Teacher*, *28*(1), 40-48.
3. Shortliffe, E. H., & Cimino, J. J. (2013). *Biomedical informatics: computer applications in health care and biomedicine*. Springer Science & Business Media.
4. Shortliffe, E. H., & Cimino, J. J. (2014). Biomedical Informatics: Computer Applications in Health Care and Biomedicine.